



## MODAL STRUKTURADAGI INSON HIS-TUYG'ULARINI IFODALOVCHI VOSITALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

**Rahimov Usmonjon Ergashevich**

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

filologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

E-mail: [usmonjonrahimov1961@gmail.com/](mailto:usmonjonrahimov1961@gmail.com/)

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1715>

### MAQOLA HAQIDA/O СТАТЬЕ

**Qabul qilindi:** 16-iyun 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 18-iyun 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-C

**Maqola raqami:** 5

### KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ

#### СЛОВА

modallik, lingvokulturologiya, antroposentrik paradigma, emotsionallik, baho kategoriyasi, xushomad konsepti, uyat konsepti, milliy mentalitet, kommunikativ xulq, madaniy qadriyatlar

### ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada modal struktura tarkibida inson his-tuyg'ularini ifodalovchi vositalarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, emotsionallik va baho kategoriyalariga mansub bo'lgan xushomad va uyat konseptlari lingvokulturologik nuqtai nazardan o'rganilib, ularning turli xalqlar madaniyatida namoyon bo'lish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Xushomadning sotsial va emotsional turlari, shuningdek, uyat konseptining semantik va kognitiv jihatlarini yoritiladi. Maqolada zamonaviy tilshunoslikning antroposentrik va lingvokulturologik yondashuvlari asosida modal struktura tarkibida inson his-tuyg'ularini ifodalovchi vositalarning o'rni va ahamiyati tadqiq etiladi. Tadqiqotda emotsionallik hamda baho kategoriyalarining muhim tarkibiy qismlari hisoblangan xushomad va uyat konseptlari lingvomadaniy hodisa sifatida tahlil qilinadi. Ushbu konseptlarning semantik, pragmatik va kognitiv xususiyatlari yoritilib, ularning milliy madaniyat, mentalitet va kommunikativ xulq-atvor bilan bog'liqligi ochib beriladi. Shuningdek, turli xalqlar lingvomadaniyatida xushomad va uyat konseptlarining namoyon bo'lish shakllari qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning kommunikativ jarayondagi vazifalari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari modal mazmunning shakllanishida emotsional va baholovchi birliklarning muhim o'rin tutishini hamda til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy munosabatlarni yoritishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Mazkur ish lingvokulturologiya, pragmatik lingvistik, kognitiv tilshunoslik va kommunikativ tilshunoslik yo'nalishlarida olib borilayotgan tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

### ABOUT THE PAPER

**Accepted:** 16 June 2026

**Approved:** 18 June 2026

**Volume:** 18-C

**Paper number:** 5

### KEYWORDS

modality, linguoculturology, anthropocentric paradigm, emotionality, evaluative category, concept of flattery, concept of shame, national mentality, communicative behavior, cultural values

### ANNOTATION

This article analyzes the linguocultural features of means expressing human emotions within modal structures. In particular, the concepts of flattery and shame, which belong to the categories of emotionality and evaluation, are examined from a linguocultural perspective, and a comparative analysis of their manifestations in different cultures is provided. The study highlights the social and emotional types of flattery, as well as the semantic and cognitive aspects of the concept of shame. The article studies the role and significance of means of expressing human emotions in the modal structure based on the anthropocentric and linguocultural approaches of modern linguistics. The study analyzes the concepts of flattery and shame, which are important components of the emotionality and evaluative categories, as a linguocultural phenomenon. The semantic, pragmatic and cognitive properties of these concepts are highlighted, and their connection with national culture, mentality and communicative behavior is revealed. Also, the forms of manifestation of the concepts of flattery and shame in the linguoculture of different peoples are studied comparatively, and their functions in the communicative process are determined. The results of the study show that emotional and evaluative units play an important role in the formation of modal content and serve to shed light on the integral relationship between language, thinking and culture. This work is of theoretical and practical importance for research in the areas of linguoculturology, pragmatology, cognitive linguistics and communicative linguistics.

**Kirish.** Antroposentriзмgacha bo'lgan davrda til kommunikatsiya vositasi, fikr ifodalash uchun xizmat qiladi, deb talqin etilar edi. Ushbu qarash tilning paydo bo'lgan paytdagi holatiga emas, balki undan hozirgi kunda foydalanishga qaratilgan fikrlarni jamlaydi. Tilning asosiy funksiyasini quyidagicha belgilash mumkin: tilda dunyoning konseptual tasviri shakllanadi. Antroposentrik paradigma – bu tadqiqotchi qiziqishlarining bilish obyektlaridan subyektga o'zgarishi, ya'ni tilda inson va insonda til tahlil etiladi, modomiki, I.A. Boduen de Kurtene so'zlari bilan aytganda: “til faqat individual onglarda, qalblarda, balki ushbu til jamiyatini tashkil etuvchi individlar yoki shaxslar psixikasida mavjuddir” [2, 2-b]. Dunyoda besh mingdan ortiq tillar borligi olimlar tomonidan aniqlangan. Ammo bu tillar bir-biridan birgina fonetik, leksik, morfologik-sintaktik jihatdan emas, balki bu tilni tashuvchi kommunikantlarning tarixi, dunyoqarashi, estetikasi, etikasi, shuningdek, madaniyati, urf-odat, milliy dunyoqarashi bilan ham ajralib turadi. Tilning shunday nozik qirralarini hisobga olgan holda o'tgan asrlarda yangi yo'nalish – lingvokulturologiya yuzaga keldi.

**Adabiyotlar tahlili.** Lingvokulturologiya, modallik va emotsional konseptlarni o'rganish masalalari zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigma doirasida rivojlanib bormoqda. Ushbu yo'nalishning nazariy asoslari bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Jumladan, V.A. Maslova lingvokulturologiyani til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi fan sifatida tavsiflab, til xalqning konseptual dunyoqarashini aks ettiruvchi vosita ekanligini ta'kidlaydi [4, 88-b.]. Olimning fikricha, har bir millatning mentaliteti va madaniy qadriyatlarini til

birliklarida o'z ifodasini topadi, bu esa konseptlarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Antroposentrik tilshunoslikning metodologik asoslari I.A. Boduen de Kurtene tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Olim tilning jamiyatdan tashqarida emas, balki individual ong va psixikada mavjudligini ta'kidlab, til hodisalarini inson omili bilan bog'liq holda tadqiq etish lozimligini qayd etadi [2, 2-b.]. Ushbu yondashuv emotsional va baholovchi mazmunlarning modal strukturalarda namoyon bo'lishini izohlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Insonning ichki dunyosi va mental jarayonlari masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda S. Prist ong fenomenining real mavjudligini e'tirof etib, inson tafakkuri va hissiy kechinmalarini tushinishda mental jarayonlarning ahamiyatini ko'rsatadi [5, 27-b.]. Bu qarashlar uyat va xushomad kabi emotsional konseptlarning shakllanish mexanizmlarini tahlil qilishda muhim o'rin tutadi.

Xushomad konsepti kommunikativ-pragmatik jihatdan I.S. Morozova tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotchi xushomadning tashqi ko'rinish, kiyim, xarakter, aql-zakovat, yosh, faoliyat natijalari va oila a'zolariga qaratilgan turlarini ajratib ko'rsatadi [3, 15–16-b.]. Muallifning tasnifi xushomadning kommunikativ vaziyat va madaniy muhitga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Uyat konseptining lingvokulturologik xususiyatlari E.A. Djenkova tomonidan keng tahlil qilingan. Olim uyatni insonning axloqiy me'yorlar bilan bog'liq emotsional reaksiyasi sifatida baholab, uning hissiy, kognitiv va madaniy komponentlarini ajratib ko'rsatadi [1, 234–236-b.]. Tadqiqotda

uyat hissining turli xalqlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, uning milliy mentalitet bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan.

Shuningdek, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da xushomad va uyat leksemalarining semantik tavsifi berilgan bo'lib, xushomad "tamagirlik bilan maqtash, sermulozamat bo'lish", uyat esa "o'z qilmishidan hijolat tortish, nomus hissi" kabi ma'nolarda izohlangan [6, 432-b.; 7]. Ushbu lug'aviy izohlar mazkur konseptlarning o'zbek lingvomadaniyatidagi mazmun-mohiyatini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar xushomad va uyat konseptlarining emotsionallik hamda baho kategoriyalari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq ushbu konseptlarning modal struktura tarkibida lingvokulturologik jihatdan qiyosiy o'rganilishi yetarli darajada tadqiq etilmagan bo'lib, mazkur maqola ana shu masalaning ayrim jihatlarini yoritishga qaratilgan.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqot antroposentrik va lingvokulturologik yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy-tahliliy, qiyosiy-chog'ishtirma hamda konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, xushomad va uyat konseptlarini ifodalovchi til birliklarining semantik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari o'rganildi. Turli xalqlarning madaniy qarashlari va kommunikativ xulq-atvorida ushbu konseptlarning namoyon bo'lish shakllari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar, lug'atlar va lingvokulturologik tadqiqotlar materiallari asosida mazkur konseptlarning modal struktura tarkibidagi o'rni hamda emotsionallik va baho kategoriyalari bilan bog'liqligi aniqlandi. Olingan natijalar umumlashtirish va interpretatsiya usullari yordamida ilmiy xulosalarga keltirildi.

**Tadqiqot natijalari.** Hozirgi kunda filosofiya, kulturologiya, lingvistik va lingvokulturologiyada insonni to'liq tarzda o'rganish tendensiyasi sezilmoqda, uning tabiatiga, tashqi ko'rinishiga, ichki dunyosiga, mentaliteti va boshqa xususiyatlariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Shuningdek, inson fenomenini tushunish tabiiy fanlar yordamida emas, balki tabiiy tillar yordamida amalga oshadi, mazmunidagi qarashlar ham mustahkamlanib bormoqda. Til esa o'z navbatida, insonning ichki dunyosi bilan bog'langan holda yuzaga chiqadi. Inson ichki dunyosi – bu mental dunyo. "Mentallikdan ajrab bo'lmaydi. U juda ham realdir." [5.27]

Til va inson bir-biri bilan chambarchas bog'liq, demak, til insonga xos bo'lgan barcha his-tuyg'ularni ifodalab kela oladi. Grammatikada ushbu hodisa modallik kategoriyasi termini bilan yuritiladi. Modal struktura o'zida modallikni, emotsionallikni va baho kabi qator xususiyatlarni aks ettiradi. Biz ushbu tadqiqotimizning ob'yektlari sifatida baho va emotsionallik qurilmalari tarkibiga kiruvchi xushomad va uyat konseptlarini tanladikki, ular o'zlarida madaniy mental birlikni namoyish etadi.

Xushomad – zamonaviy kommunikatsiya jarayonining ajratib bo'lmaz qismlaridan biri. Ushbu konsept yordamida xalqlarning madaniyati yorqin namoyon bo'ladi, deya olamiz: ba'zilar xushomad maqtovi va xushumomallik, ba'zilar esa yoqimsiz holat. Shu sababli ham xushomad turli xalqlar hayotida o'z xususiyatiga ega. Ushbu konsept lingvodidaktika, pragmatika, kulturologiya, amaliy psixologiya va lingvokulturologiya kabi fanlarning o'rganish ob'yekti hisoblanadi. Xushomadning u yoki bu jihatlari N. I. Formanovskiy, A. A. Bodalev, V. P. Shyeynov, O. S. Issers, YE. V. Klyuyev, V. I. Karasik, A. A. Kachevskiy, R. Gerbert, K. Kerba-Oreksion, R. Chyen, R. Xoppera, M. Knepp kabi rus va chet el olimlari tadqiqotlarida uchraydi. Xushomadning ikki turini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. **Sotsial xushomad** – bunda adresant adresatga hech qanday axborot uzatmaydi, balki ushbu xushomad ortidan o'z manfaatiga foyda keltirishni nazarda tutadi.

2. **Emotsional xushomad** – bunda ardesant adresatga ma'naviy jihatdan kuch-quvvat berish, uni qo'llab-quvvatlash yoki o'zi haqida yoqimli taassurot qoldirish uchun amalga oshiradi.

Shuningdek, I. S. Morozova xushomadni tematik jihatdan klassifikatsiya qilgan:

- 1) tashqi ko'rinishga;
- 2) kiyim predmetiga;
- 3) ichki xususiyatga;
- 4) aql, qobiliyatga;
- 5) yoshga;
- 6) harakat, harakat natijasiga;
- 7) adresatga tegishli buyum yoki uning oila a'zolariga qilingan xushomad [3.15-16].

Xushomad konsepti ham boshqa barcha birliklar singari verbal va nonverbal tarzda amalga oshirilishi mumkin va u o'z atrofiga *laganbardorlik, tilyog'lamalik, maqtovi kabi freymlarni birlashtiradi*. Bunday xususiyatlar ham turli xalq madaniyatida o'ziga xoslikni tashkil etadi. O'zbek tilida "Xushomad – biror kishiga tamagirlik bilan xizmat qilish, sermulozamat bo'lish, maqtash va sh.k." [6] ma'nolarni anglatadi.

Xushomadning turli millatlar orasida o'ziga xos tarzda yuzaga chiqishini ko'rib o'tsak. Inglizlarda xushomadning yuqorida keltirilgan ikkala turi mavjud emas. Chunki ular o'zlarining haqiqiy ichki his-tuyg'ularini ko'rsatmaslikka harakat qiladilar. Ular, shunchaki madaniyat jihatdan, (bu noto'g'ri bo'lsa) suhbatdoshi bilan muloqot uzilib qolmasligi uchun kommunikatsiya jarayonida xushomad qilib turadilar. Ispanlarda esa, aksincha, ular o'zlarida qanday his-tuyg'u jo'shib turgan bo'lsa, shuni yaqqol namoyon etishga harakat qiladilar. Xushomadning qayerda qay turini qo'llashni vaziyatga qarab belgilaydilar. Norveglar uchun xushomad bu tilyog'lamalik hisoblanadi, tilyog'lamalikni esa katta gunoh deb biladilar, ular, hatto, bolalarini maktabda qo'lga kiritgan yutuqlari uchun ham maqtamaydilar. O'zbeklarda xushomadning yuqorida kelirilgan har ikki turi xarakterli, faqat qarama-qarshi jins vakiliga ochiq xushomad qilish madaniyatga to'g'ri kelmaydi. Greklarda biror predmetni maqtagan shaxsga sovg'a qilish an'anasi mavjud, ammo bu saxiylik har doim ham samimiyat yuzasidan ro'y bermaydi. Xitoylikni maqtayotgan vaqtda uni boshqa xitoyliklarga qiyoslamaslik zarur, ular o'zlarini bir katta oila deb biladilar va o'zini maqtalganligiga hursand bo'lmaydilar. Xo'rinib turibdiki, xushomad konseptini ifodalovchi birliklar barcha xalqlarda mavjud va individual tarzda yuzaga chiqish xususiyatiga ega. Bu esa har bir millatning paydo bo'lish va rivojlanish jarayoni bilan bog'liq.

Kulturologik jihatdan uyat ham xushomad singari o'ziga xos, madaniyatning ichki olamida shakllanuvchi, axloqiy me'yorlarga amal qilgan holda yuzaga chiquvchi psixoparalingvistik vosita hisoblanadi. Uyat konsepti ostida kognitiv jarayon yotadi va u har bir insonning "Men"ida individual tarzda yuzaga chiqadi, o'z millati, xalqi madaniyatidan kelib chiqqan holda shakllanib boradi. Lingvistikada uyat konseptini o'rganish borasida Arutyunov, Stepanov, Apresyan, Bajenov, Grigoryan, Lazarid, Shmelev rus tili materiallari asosida, Djenkova nemis tili materiallari asosida va Kalinina ingliz tili materiallari asosida tadqiqotlar olib borganlar. Uyat konseptini ifodalash uchun xizmat qiluvchi freymlar – qizarmoq, hijolat bo'lmoq, o'ng'aysizlik, noquaylik, izza bo'lmoq nomus, isnod – mazmunan quyidagi semalarni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi: 1) dominant sema (hissiyot); 2) hissiyot sababi (o'z qilmishi, xulq-atvorining noto'g'riligi, nojo'yaligining iqrori); 3) intensivatorlik (kuchli hijolatlik hissi); 4) hissiyotning qarama-qarshi xususiyati; 5) hissiyotning fiziologik jihatdan kechinmasi. [1.234]

Uyatni ikki xil jihatdan o'rganish mumkin ekanligi haqida qarashlar mavjud:

1. Moral (ma'naviy) jihatdan (D.Osyubel atamasi);
2. Deontik (axloqiy) jihatdan (A.D.Shmelev atamasi).

O'zbek tilida "Uyat – o'z qilmishi, no'rin xatti-harakatidan hijolatlik hissi, nomus" [7] kabi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Demak, uyat konsepti ostida ikki xil dominant ma'no yotadi. Birinchisi – hijolatlik hissi, ikkinchisi esa nomus va isnod kechinmalari. Barcha xalq va millat o'ziga xos tarzda uyat konseptini kommunikatsiya jarayonida yuzaga chiqaradi. Uyat bilan bog'liq bo'lgan holat ruslarda asosan din bilan, xitoy va yaponlarda milliy an'analar bilan bog'langan. Uyat konseptining barcha millat uchun xos bo'lgan quyidagi xarakteristikasini keltirishimiz mumkin:

1. Uyat inson uchun moral belgi sifatida.
2. Uyat hissi kechinmasining intensivatorligi inson ongiga moddiy zarardan kuchliroq ma'naviy ta'sir o'tkazuvchi asorat sifatida.

3. Uyat insonning hayot kechirishi uchun halal beruvchi faktor sifatida. [1.235-236] Ta'kidlab o'tishimiz joizki, ayrim hollarda xushomad va uyat konseptlarining yuzaga chiqishi ketma-ketlikni tashkil etadi. Shunday hollarda ularni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan kategoriya sifatida talqin etishimiz mumkin.

**Muhokama.** Modal struktura tarkibida inson his-tuyg'ularini ifodalovchi vositalarni lingvokulturologik jihatdan o'rganish til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, emotsionallik va baho kategoriyalari modal mazmunning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ular orqali kommunikantning voqelikka, suhbatdoshga yoki muayyan hodisaga bo'lgan subyektiv munosabati ifodalanadi. Ayniqsa, xushomad va uyat konseptlari insonning ijtimoiy tajribasi, axloqiy qarashlari hamda milliy-madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli lingvokulturologik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xushomad konsepti barcha xalqlarda mavjud bo'lsa-da, uning mazmuni va kommunikativ vazifalari turlicha talqin qilinadi. Ayrim madaniyatlarda xushomad ijtimoiy munosabatlarni yumshatuvchi, muloqotni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida baholansa, boshqa madaniyatlarda u samimiy bo'lmagan nutqiy harakat, hatto axloqiy jihatdan salbiy hodisa sifatida qabul qilinadi. Bu holat har bir xalqning tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy qadriyatlari va kommunikativ me'yorlari bilan izohlanadi. Xususan, o'zbek madaniyatida xushumomallik, hurmat va ehtirom qadriyatlari yuqori baholanganligi sababli xushomadning emotsional turi ko'proq ijobiy mazmun kasb etadi. Biroq manfaatdorlik

asosida yuzaga keladigan sotsial xushomad ko'pincha tanqidiy munosabat bilan baholanadi.

Xushomad konseptining lingvokulturologik tahlili uning nafaqat til birligi, balki madaniy kod sifatida ham faoliyat yuritishini ko'rsatadi. Xushomad orqali kommunikant o'zining suhbatdoshga bo'lgan munosabatini, ijtimoiy mavqei va kommunikativ maqsadini namoyon qiladi. Shu jihatdan qaraganda, xushomad modal struktura tarkibida baholash va emotsionallikning uyg'unlashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Unda bir vaqtning o'zida ijobiy baho, hissiy ta'sir va pragmatik maqsad mujassamlashgan bo'ladi.

Uyat konsepti tahlili esa ushbu hodisaning insonning axloqiy ongiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Uyat hissi jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yor va qadriyatlarining buzilishi natijasida yuzaga keladigan emotsional holat sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli uning mazmuni va ifodalanish shakllari turli madaniyatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayrim xalqlarda uyat diniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lsa, boshqalarida milliy an'analar va jamoaviy ong bilan chambarchas aloqador hisoblanadi. O'zbek lingvomadaniyatida esa uyat tushunchasi nomus, oriyat, hayo va odob kabi axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, inson xulq-atvorini tartibga soluvchi muhim ijtimoiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama natijalari uyat konseptining faqat salbiy emotsional holat emasligini ham ko'rsatadi. U insonning ma'naviy kamoloti va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantiruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Uyat hissi shaxsni o'z xatti-harakatlarini qayta baholashga, axloqiy me'yorlarga amal qilishga va jamiyat talablariga mos ravishda faoliyat yuritishga undaydi. Shu bois uyat konsepti modal struktura tarkibida nafaqat emotsional, balki baholovchi va regulativ funksiyalarni ham bajaradi.

Tadqiqot davomida xushomad va uyat konseptlari o'rtasida ma'lum semantik-pragmatik bog'liqlik mavjudligi ham kuzatildi. Ayrim kommunikativ vaziyatlarda ortiqcha yoki noo'rin xushomad uyat hissining paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Aksincha, uyat hissini yumshatish yoki bartaraf etishda xushomad vositalaridan foydalanish holatlari ham uchraydi. Bu esa mazkur konseptlarning inson psixologiyasi va kommunikativ xulq-atvori tizimida o'zaro ta'sirlashuvchi kategoriyalar ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari modal struktura tarkibida inson his-tuyg'ularini ifodalovchi vositalar milliy madaniyat, ijtimoiy tajriba va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanishini tasdiqlaydi. Xushomad va uyat konseptlari turli xalqlarning lingvomadaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim konseptual birliklar bo'lib, ularni qiyosiy va lingvokulturologik jihatdan o'rganish tilning inson omili bilan bog'liq jihatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur konseptlar modal mazmunning emotsional va baholovchi qatlamlarini tashkil etib, kommunikativ jarayonda insonning ichki kechinmalari hamda madaniy identifikatsiyasini namoyon etuvchi muhim vositalar sifatida xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xushomad va uyat konseptlari inson tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan, uning axloqiy-ma'naviy dunyosiga ta'sir o'tkazuvchi, turli vaziyatlarda uning xatti-harakatlarini tartibga

soluvchi birliklar hisoblanadi. Ushbu konseptlarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish shuni ko'rsatdiki, har bir millat o'z shakllanish va rivojlanish tarixiga ega va ularning dunyoqarashi, madaniyati, an'analari, tashqi olamdan bo'ladigan ta'sirlarga javob reaksiyasi o'ziga xos va individualdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, modal struktura tarkibida inson his-tuyg'ularini ifodalovchi vositalar nafaqat grammatik yoki semantik hodisa, balki muayyan xalqning madaniy tafakkuri, axloqiy qadriyatlar va kommunikativ xulq-atvorini aks ettiruvchi lingvokulturologik birliklar ham hisoblanadi. Emotsionallik va baho kategoriyalariga mansub bo'lgan xushomad hamda uyat konseptlari insonning voqelikni idrok etishi, unga munosabat bildirish jarayoni va ijtimoiy aloqalarni tartibga solishda muhim funksiyalarni bajaradi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, xushomad konsepti turli madaniyatlarda bir xil kommunikativ vazifani bajarmaydi. Uning mazmuni va qo'llanish darajasi milliy mentalitet, ijtimoiy me'yorlar hamda madaniy qadriyatlar bilan belgilanadi. Ayrim xalqlarda xushomad muloqotni qo'llab-quvvatlovchi ijobiy kommunikativ strategiya sifatida baholansa, boshqalarida samimiylikka zid bo'lgan salbiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan xushomad konsepti madaniyatlararo kommunikatsiyada milliy o'ziga xoslikni namoyon etuvchi muhim lingvomadaniy ko'rsatkichlardan biri ekanligi aniqlandi.

Uyat konseptining tahlili esa uning insonning ma'naviy va axloqiy dunyosi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Uyat hissi shaxsning o'z xatti-harakatlarini jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlar asosida baholashi natijasida yuzaga keladigan murakkab kognitiv-emotsional jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Turli xalqlarda uyat hissining yuzaga chiqish sabablari va ifodalanish shakllari farqlansa-da, uning inson xulq-atvorini nazorat qiluvchi hamda ijtimoiy tartibni saqlovchi universal madaniy mexanizm ekanligi kuzatildi.

Tadqiqot davomida xushomad va uyat konseptlarining o'zaro bog'liq jihatlari ham aniqlandi. Ular kommunikativ jarayonda emotsional va baholovchi mazmunlarni shakllantirib, insonning nutqiy faoliyatiga, suhbatdosh bilan munosabatlariga hamda ijtimoiy mavqei belgilashga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur konseptlarni modal strukturaning tarkibiy elementlari sifatida o'rganish inson omiliga yo'naltirilgan zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari lingvokulturologik yondashuv yordamida modal mazmunning milliy-madaniy xususiyatlarini chuqurroq ochib berish mumkinligini tasdiqladi. Xushomad va uyat konseptlari misolida til birliklarida xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va madaniy qadriyatlarini mujassamlashgani namoyon bo'ldi. Bu esa kelgusida emotsionallik va baho kategoriyalariga mansub boshqa konseptlarni ham qiyosiy va lingvokulturologik aspektda tadqiq etish uchun nazariy hamda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada chuqurroq anglash imkoniyati kengayadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Антология концептов. Том 3. Дженкова Е.А. Стыд и вина. Волгоград: Парадигма, 2006. С. 235-236.
2. Бодуэн-Де Куртэне И. А. Избранные труды. – М., 1963. – Т. 2
3. Морозова И. С. Compliments и их роль в общении // Проблемы языковедения и литературоведения: динамический аспект. – Пермь, 1999. – С. 15–16.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. Москва, 2001. – С. 88.
5. *Прист С.* Теория сознания. – М.: Идея-Пресс, 2000. – С.27
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати // X va U ҳарфи – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. 432-б.
7. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – 2-е изд. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
8. Апресян Ю. Д. Избранные труды. Т. 1. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1995. – 472 с.
9. Воркачев С. Г. Счастье как лингвокультурный концепт. – М.: Гнозис, 2004. – 236 с.
10. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
11. Красных В. В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: курс лекций. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2002. – 284 с.

12. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
13. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – 3-е изд. – М.: Академический проект, 2004. – 992 с.
14. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
15. Шмелев А. Д. Русская языковая модель мира: Материалы к словарю. – М.: Языки славянской культуры, 2002. – 224 с.
16. Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 288 с.
17. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.
18. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – 656 с.
19. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – 451 с.
20. Лихачев Д. С. Концептосфера русского языка // Известия АН СССР. Серия литературы и языка. – 1993. – Т. 52, № 1. – С. 3–9.
21. Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику. – М.: Флинта; Наука, 2011. – 296 с.
22. Вежбицкая А. Эмоции и культурные сценарии // Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – С